



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 4 - oktabr

64-8-0-F/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

2021-yil hosili uchun yetishtirilgan paxtani nest-nobud qilmasdan terib olish, bunda yig‘im-terim mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil etish va belgilangan tadbirlarni to‘liq amalga oshirish, shuningdek, viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2021-yil 25-avgustdagi 01-10/12-2056-sonli xatini inobatga olib:

1. Surxondaryo viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2021-yil 25-avgustdagi 01-10/12-2056-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yil paxta xomashyosi yig‘im-terimini tashkil etish bo‘yicha viloyat paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat paxta terimi hisob-kitobi informatsion markaziga:

paxta yig‘im-terimini uyushqoqlik bilan tartibli tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish, tahlil qilish, mavjud muammolarni tezkorlik bilan hal etish;

transport texnikalaridan samarali foydalanish va ushbu texnikalarni yoqilg‘i-moylash materiallari bilan yetarlicha ta‘minlash, paxta yig‘im-terimini moliyalashtirish hamda terimchilar bilan o‘z vaqtida o‘zaro hisob-kitob qilish ishlarining amalga oshirilishini nazorat qilish;

yig‘im-terimga mehnat shartnomasi asosida ixtiyoriylik asosida jalb etilgan hasharchi-terimchilarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, joylarda ko‘chma savdo, madaniy va maishiy xizmatlar hamda ko‘chma medpunktlarni tashkil etish vazifalari topshirilsin.

4. Tumanlarga, sektorlarga viloyatdan birlashtirilgan vakillar, eng avvalo, paxta yig‘im-terimida qatnashadigan terimchilarga talab etiladigan issiq-ovqat, etak, suv baki, tarozi va boshqa kerakli anjomlar bilan ta‘minlash choralari ko‘rsinlar, shuningdek, paxta yig‘im-terimi bo‘yicha tashkil etilgan otryadlarning ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish va nazorat qilib borish, paxta yig‘im-terimi otryadlari rahbarligiga fidoiy, tashkilotchi va yetakchilik qobiliyati mavjud bo‘lgan nomzodlarni tanlab olish va ular bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasida mehnat shartnomasi tuzilishini ta‘minlash, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida

paxta xomashyosi yetishtirish bo'yicha tuzilgan shartnomalari bajarilishi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilasinlar.

5. Paxta yig'im-terimi mavsumida kunlik hisob-kitob ishlarining monitoringini olib boruvchi viloyat ishchi guruhi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (U.Zokirov), "Agrobank" ATB viloyat boshqarmasi (Sh.Rajabov), "O'zmilliybank" AJ Surxondaryo filiali (I.Yakubov), "O'z sanoatqurilishbank" Surxondaryo mintaqaviy filiali (Z.Sharipov), "Surxon Sifat Tekstil" MCHJ (M.Abduroxmonov), "Denov tekstil Cluster" MCHJ (Sh.Allaberdiyev), "Surxondaryo agroxizmat" MCHJ (J.Xolmurodov), "Termiz Jayhun Cluster" MCHJ (A.Xusanov), "Angor Surxon g'ururi" MCHJ (Sh.Safarqulov), "Surxon Cotton Tekstil Cluster" MCHJ (U.Xudoyqulov), "Muzrabot Indenim Cluster" MCHJ (A.Ilmurodov), "Indenim Cluster" MCHJ (A.Choriyev), "Sho'rchi Indenim Cluster" MCHJ (A.Choriyev), "Bandixon Textile Cluster" MCHJ (X.Nurmatov) paxta to'qimachilik klasterlari hamda tijorat banklari rahbarlari paxta xomashyosini yig'ib-terib olishda qatnashayotgan terimchilarga terim pullarini to'lab berish bo'yicha tegishli choralar ko'rsin.

Bunda:

"Agrobank" ATB tuman filiallari tomonidan paxta qabul qilish punktlarida bank sayyor kassalarini tashkil etish, har bir sayyor kassaga kamida ikkitadan va har 5 ta fermer xo'jaligiga bittadan bank xodimlarini birlashtirish tavsiya etilsin;

7. Viloyat Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Husanov) va Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi (E.Qorjovov):

ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazoratga olsin;

viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (N.Kadirov), viloyat IIB YHXB (I.Soipov), viloyat SEO va JSM (A.Mustanov), "Surxondaryo elektrtarmoqlari" AJ (M.Shamsuddinov) bilan birgalikda tumanlardagi tashkil etilgan terimchilar yotoq joylarining shart-sharoitlarini o'rganib chiqib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish topshirilsin.

8. Viloyat Bandlik bosh boshqarmasi (S.Jumayev) "Mahalla" xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi (X.Samadov) viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (M.Murodov) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining hududiy boshqarmasi (S.Shoymardanov) bilan birgalikda:

2021-yil paxta hosilini yig'ib-terib olishda qatnashadigan terimchilar, terim otryadlari va otryad a'zolari ro'yxati shakllantirsin va ushbu ro'yxatning elektron bazasi yaratilishini hamda har bir terim otryad tarkibida kamida 70 nafar terimchi bo'lishini ta'minlasin;

sektor rahbarlari tomonidan o'zlariga birlashtirilgan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining har biriga terimni qisqa muddatlarda sifatli qilib tashkil qilish, terimchilar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish va kontraktatsiya shartnomalarining bajarilishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha "ogohlantirish" bersin.

9. Viloyat Bandlik bosh boshqarmasi (S.Jumayev) Surxondaryo viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi (A.Axmedov) bilan hamkorlikda:

paxta terim otryadlari rahbarlari bilan, shuningdek, paxta yig'im-terimiga jalb etiladigan hasharchi-terimchilar bilan joriy yilning 5-sentabriga qadar fermer xo'jaliklari o'rtasida mehnat shartnomalari tuzilishini ta'minlasin;

paxta yig'im-terimi mavsumi davomida "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi Jeneva Konvensiyasiga qat'iy amal qilinishini nazoratga olsin, bunda, ayniqsa, maktablar o'quvchilari va o'qituvchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa budget tashkilotlari xodimlarini paxta yig'im-terimiga jalb etmaslik borasida nazoratni kuchaytirsin va tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

10. Tumanlar hokimlari va sektor rahbarlari, "Surxon Sifat Tekstil" MCHJ (M.Abduroxmonov), "Denov tekstil Cluster" MCHJ (Sh.Allaberdiyev), "Surxondaryo agroxiizmat" MCHJ (J.Xolmurodov), "Termiz Jayhun Cluster" MCHJ (A.Xusanov), "Angor Surxon g'ururi" MCHJ (Sh.Safarqulov), "Surxon Cotton Tekstil Cluster" MCHJ (U.Xudoyqulov), "Muzrabot Indenim Cluster" MCHJ (A.Ilmurodov), "Indenim Cluster" MCHJ (A.Choriyev), "Sho'rchi Indenim Cluster" MCHJ (A.Choriyev), "Bandixon Textile Cluster" MCHJ (X.Nurmatov) paxta to'qimachilik klasterlariga:

2021-yil paxta xomashyosi yig'imterimini tashkil etish bo'yicha tuman paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazini tashkil etish;

har bir tumanda kunlik paxta xomashyosi terilishi va paxta terimining borishi to'g'risidagi hisob-kitoblarni to'laqonli yuritish maqsadida tuman paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazi uchun alohida ish xonalari, kompyuterlar, internet, telefon aloqalari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash, shuningdek, malakali va tajribali mutaxassislar ajratish, ularning kechayu-kunduz ishlashlariga zarur shart-sharoitlar yaratish;

hasharchilar uchun yotoq joylari va shiyponlarning dislokatsiyasini tayyorlab, to'liq ta'mirlanishini, maishiy shart-sharoitlar yaratilishini, mavsum davomida talab etiladigan oziq-ovqatlar zaxirasi yaratilishini, palatkalar va boshqa kerakli anjomlarning mavsumga shay holatda bo'lishini ta'minlash;

tumandagi har bir hududlarga hamda har bir fermer xo'jaliklariga tuman tashkilotlaridan vakillar biriktirib, fermer xo'jaliklarining paxta maydonlariga terimchilarni jalb etish;

tashkil etilgan terim otryadlariga biriktirilgan mas'ullar bilan birgalikda terim ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berib, joylarda terimchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

terim mavsumida paxta qabul qilish maskanlarida paxta xomashyosini qabul qilish jarayonlarini "Onlayn" ravishda informatsion markazdan nazorat qilish va paxta yig'im-terimini tizimli tashkil etish bo'yicha joylarda hududiy seminarlar o'tkazib, har bir otryad va shtablarning aniq vazifalarini belgilab berish

fermer xo'jaliklariga talab etiladigan etak va avtoyopqichlarning yetkazib berilishini hamda paxta qabul qilish maskanlarida elektron tarozi, brezentlar va paxta uyumlari uchun

maydonlarni mavsumga tayyorlash ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

11. Viloyat IIB YHXB (I.Soipov) hasharchilarni tashishga jalb etiladigan transport vositalarini texnik sozligini qayta ko‘rib chiqib, tashish davrida harakat xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar belgilasin.

12. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov):

hasharchilarni va paxtani tashiydigan avtotransport vositalarining texnik holati bo‘yicha qat‘iy nazorat o‘rnatib, belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha tashkiliy ravishda terimchilarni manzillarga yetkazishda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash;

tirkamalarda, usti ochiq mashinalarda odam tashishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini belgilash, shuningdek, hasharchilar yotadigan joylarida xavfsizlik choralarini ko‘rsin.

13. Viloyat sektor rahbarlari o‘zlariga biriktirilgan tumanlarga xodimlarini jalb qilib, paxta yig‘im-terimi mavsumini to‘liq nazoratga olish, davlatga paxta sotish rejalarining bajarilishini ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

14. Viloyat hokimining barcha o‘rinbosarlari o‘zlariga aloqador tashkilot va korxonalarining ixtiyoriy ravishda terimga jalb qilinadigan xodimlariga zaruriy shart-sharoitlar yaratish choralarini ko‘rsin.

15. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 4 октябрдаги
64-8-0-F/21-сон фармойишига
1-илова

2021-yil paxta xomashyosi yig'im-terimini tashkil etish bo'yicha viloyat paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazi tarkibi

1. T.Bobolov viloyat hokimi, viloyat paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazi boshlig'i
2. F.Mamanov viloyat hokimining birinchi o'rinbosari, viloyat paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazi boshlig'i o'rinbosari
3. U.Turapov viloyat hokimining o'rinbosari, viloyat paxta terimi hisob-kitobi informatsion markazi boshlig'i o'rinbosari
4. A.Xidirov -viloyat hokimining o'rinbosari
5. I.Saparov -viloyat hokimining o'rinbosari
6. F.Tairov -viloyat hokimining o'rinbosari
7. J.To'rayev -viloyat hokimining o'rinbosari
8. A.Ismoilov viloyat IIB boshlig'i
9. Kelishuv asosida viloyat prokuraturasi mas'ul xodimi
10. M.Murodov -viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i
11. E.Avazov viloyat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
12. U.Alimov -viloyat Statistika boshqarmasi boshlig'i
13. S.Jumayev -viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i
14. Z.Achildiyev -Surxondaryo "Agroservis MTP" MCHJ raisi
15. Sh.Rajabov -"Agrobank" ATB viloyat boshqarmasi boshlig'i
16. H.Vohidov -Surxondaryo viloyat Transport boshqarmasi boshlig'i
17. K.Valiev viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, hisob-kitoblar bo'yicha kotib
18. Lavozimga ko'ra -Paxta-to'qimachilik klaster rahbarlari
19. Lavozimga ko'ra -Tumanlar hokimlari

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 4 октябрдаги
64-8-0-F/21-сон фармойишига
2-илова

**Paxta yig'im-terimi mavsumida kunlik hisob-kitob ishlarining monitoringini olib boruvchi
viloyat ishchi guruhi**

- 1.K.Valiyev - viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, Ishchi guruh rahbari
- 2.B.Boyqobilov - viloyat Statistika boshqarmasi bo'lim boshlig'i
- 3.I.Islomov - viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi Paxtachilik va texnik ekinlar bo'limi boshlig'i
- 4.O.Boyto'rayev - viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi G'allachilik, dukkakli don va moyli ekinlar bo'limi boshlig'i
- 5.S.Xurramov - viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi Dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirish masalalari bo'yicha yetakchi mutaxassisi
- 6.N.Radjabov - viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, axborot-kommunkatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha yetakchi mutaxassisi